



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-aprel

108-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldag
78-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi
156-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-53-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, maktabga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldag 78-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi 156-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldag 78-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi 156-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan;

Farg'ona viloyatida o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitishda umumiy o'rta ta'lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinnbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo'latov, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Yuldashev), savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi bilan birgalikda:

2025-yildan boshlab o'quvchilarni ularning iqtidori va qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo'naltirish, zamonaviy kasblar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida 8-sinf

o‘quvchilari uchun sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, agrotexnologiya sohalaridagi korxona va tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etish;

har yili 1-aprelga qadar kelgusi o‘quv yilida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablar ro‘yxatini shakllantirish va tasdiqlash;

har yili 1-mayga qadar o‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablarga tegishli bo‘sh binolarning manzilli ro‘yxatini shakllantirib, Savdo sanoat palatasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limiga:

har yili 1 iyunga qadar “20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchilariga maktablarning bo‘sh binolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetkazish;

har yili 1 iyulga qadar maktablar bilan o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha hamkorlik qilish istagini bildirgan Dastur ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantirish va tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga taqdim etish;

Dastur ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish choralarini ko‘rish vazifalari yuklansin.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi bilan birgalikda:

har yili 1 avgustga qadar o‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish istagini bildirgan Dastur ishtirokchisi sertifikatiga ega bo‘lgan tadbirkorlar va maktablar o‘rtasida bo‘sh binoni tekin foydalanishga berish to‘g‘risida shartnomaga tuzishga ko‘maklashsin;

ikki oy muddatda yirik jihozlar bilan ta’milanadigan, mavjud ustaxonalari joriy ta’mirlanadigan va yengil tipdagi ustaxonalar quriladigan maktablar hamda xarid qilinadigan jihoz, asbob-uskuna va xom-ashyo materiallari ro‘yxatlarini shakllantirsin va tasdiqlasin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari O.Abduraxiov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov) bilan birgalikda:

kasb-hunarga o‘qitish tashkil etilgan maktablarni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan zarur jihoz va xom-ashyo bilan ta’minalash;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kasb-hunarga o‘qitish tashkil etilgan maktablarning 10-11-sinf o‘quvchilarini ularning ota-onasi yoki o‘rnini bosuvchi shaxslardan birini xabardor qilish asosida kasb-hunarga o‘qitish jarayonida mehnat qonunchiligiga muvofiq tadbirkorlik subyektlarida belgilangan oylik ish haqqining kamida 50 foizi miqdorida ish haqqi olishni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining mazkur qarori bilan maktablarning bino va inshootlaridan foydalinishda quyidagilar:

bino va inshootlarni xususiy lashtirish;

o‘quvchilarning sog‘lig‘i va xavfsizligiga salbiy ta’sir qiluvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish;

binolar va inshootlar, shu jumladan, yerosti inshootlarini qurish (yengil konstruksiyali inshootlar bundan mustasno); ko‘ngilochar, umumiyl ovqatlanish va savdo obyektlarini tashkil etish taqiqlanishi belgilab qo‘yilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish tuman hokimining o‘rnbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov zimmasiga yuklansin.

**Farg‘ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**